

Buxoro viloyat statistika boshqarmasi



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **8520,7 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati - **103,0 %** ni tashkil etdi
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o`rtacha **4,5 mln.so`mga** yetdi
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **44,6 %** ni tashkil etib, aholi jon boshiga o`rtacha **2,0 mln.so`mga** to`gri keldi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **41,1 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan **8520,7 mlrd.so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,0 %** ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 103,1 % ga, tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslashning – 103,0 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.



2018 yilning yanvar - dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **601,1 mlrd.so'mni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **7,1 %** ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar – **121,9 %** ga oshgan. Xom neft va tabiiy gaz qazib olish – **93,0 %** ga, tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat – **93,2 %** ga kamayganligini kuzatish mumkin.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yil yanvar-dekabrdagi ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yil yanvar-dekabrdagi ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Neft, ming t.			
21,4		20,4	95,1 

Tabiiy gaz, mln.kub.m.

5028,9



4714,1

93,7



Gaz kondensati, ming t.

56,3



45,2

80,3



Shag`al, t.

83814,5



85487,8

102,0



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **7539,4 mlrd.so'mni** va o'tgan yilga nisbatan **103,1 %** o'sish sur'atini tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2017 yil yanvar-dekabrdagi ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-dekabrdagi ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

Aroq (ming litr 100% spirit)

1795,3



1803,6

100,5



Kon'yak spirti (ming litr)

170,0



238,2

140,1 ↑

Yumshoq bug'doy va spel'ta uni (ming tonna)

76,2



82,5

108,3 ↑

Paxta toiasi, ming t.

110,2



87,3

79,2 ↓

O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.

25,4



22,3

87,6 ↓

Avtomobil benzini, ming t.

794,1



710,0

89,4 ↓

Dizel yoqlig'isi, ming t.

589,2



594,5

100,9 ↑

Mazut, ming t.

77,9



91,0

116,8 ↑



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **261,3 mlrd.so'mni** (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **3,0 %** ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **118,9 mlrd.so'mni** (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,4 %** ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **3797,3 mlrd.so'mni** tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **103,8 %** ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa **44,6 %** ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 51,9 % dan 2018 yilning yanvar- dekabr oylarida 62,4 % ga oshishi kuzatilmogda.

Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 34,2 %), Buxoro shahri (17,5 %), Romitan tumani (7,1 %), G'ijduvon (6,9 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Buxoro shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 29,6 %), Qorovulbozor (12,0 %), Vobkent (6,8 %), hamda Buxoro (6,6 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar Olot (2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan 113,1%), Qorako'l (109,8%), Buxoro shahri (106,4%), Kogon (106,1), Jondor (106,0%) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Vobkent (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,2 %), Qorako'l (106,3 %), Buxoro shahri (105,7 %), hamda Jondor (104,7 %) tumanlarida iste'mol tovarlari sezilarli darajada oshdi.


***2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sish sur'atlari***
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Qorovulbozor tumanida (162653,9 ming so'm), Kogon shahrida (6816,6 ming so'm), Buxoro shahrida (5390,5 ming so'm), Kogon tumanida (5405,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4520,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi viloyat darajasi 2014,7 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida 25410,8 ming so'mni, Buxoro shahrida 4037,0 ming so'mni, Kogonshahrida 2461,3 ming so'mni, Kogon tumanida 2305,8 ming so'mni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sish sur'atlari, % da



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,9 %** ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa **41,1 %** tashkil etmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %

